

**Andijon davlat tibbiyot instituti malaka oshirish va qayta
tayyorlash fakulteti oftalmologiya kafedrası**



Kafedra mudiri tibbiyot fanlar

doktori dotsent

**ISROIL TO'YCHIYEVICH
TO'XTABOYEV**

Tel: + 998 90-381-15-00

**MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH
FAKULTETI OFTALMOLOGIYA KAFEDRASINI
TARIXI VA FAOLIYATI**

VMOF oftalmologiya kafedrası 1995-yil 28 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim vazirligining qaroriga muvofiq tashkil etildi va Andijon viloyatining 60 o'rinli ko'z kasalliklari shifoxonasida joylashdi. Kafedra mudiri etib t.f.n. dotsent X.A.Abduxoliqov va kafedra assistenti etib T.J.Usmanova tayinlandi.



Dotsent Xabibillo Abduxoliqov 1995-2003 yillarda kafedraga rahbarlik qilgan.

1951-yilda Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani Nanay qishlog'ida tug'ilgan. 1974-yil ADTI davolash fakultetini tamomlagan.

1993-yil Toshkent shahrida "Ochiq burchakli glaukoma epidemiologiya va reabilitatsiyasi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. 1 ta monografiya, 150 dan ortiq ilmiy maqola va tezislar, 50 ta ratsionalizatorlik takliflari amaliyotga tatbiq qilingan. 20 ta o'quv-uslubiy qo'llanma, 12 ta uslubiy qo'llanmaga mualliflik qilgan.

Bu davrda ko'z kasalliklar shifoxonasining bosh shifokori Toxtasunova Zamira Salidjonovna bo'lgan. 1974-2006 yillarda faoliyat yuritgan Zamira Salidjonovna oliy toifali shifokor, "Sog'liqni saqlash a'lochisi" bo'lib, kafedra bilan birgalikda bir qancha kasalliklarni yangicha davolash metodikalarini yo'lga qo'yishgan.

2004-2012 yillarda kafedra mudiri etib t.f.d dotsent Isroil To'ychievich To'xtabaev tayinlandi.

I.To'xtaboev 1992-yilda Rossiyaning Yaroslavl shahrida "Anatomo-topograficheskiy osobennosti i sitoarxitektonika zritelnoy kori pole 17 zatelochnoy dole golovnogo mozga cheloveka postnatalnom ontogeneze" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. O'zining amaliy va ilmiy-pedagogik faoliyatini rivojlantirib, 2003-yilda Moskva shahrida I.M.Sechenov nomidagi Tibbiyot akademiyasida "Vozrastnye i individualnye izmeneniya sitoarxitektoniki korkovykh poley 17, 18, 19 zatilochnoy oblastey v levom i pravom polusharii mozga cheloveka" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini muvafaqqiyatli himoya qildi.

I.To'xtaboev 2003-2013 yillarda kafedra mudiri lavozimida faoliyat yuritdi. 2006-2011 yillari vrachlar malakasini oshirish fakulteti dekani lavozimida ishladi. 2013 yil yanvar oyidan kafedra professori lavozimida faoliyat olib bormoqda.

2006 yil 21-fevraldan bosh shifokor lavozimida Shoxruxbek Rustamovich Qodirov faoliyat yuritib kelmoqda. Shoxruxbek Rustamovich 1961-yili Andijon tumanida tug'ilgan. 1984-yil ADTI davolash fakultetini tamomlagan. "Sog'liqni saqlash a'lochisi", oliy toifali shifokor. Uning boshchiligida shifoxona moddiy – texnik bazasi tubdan yangilandi. SHifoxona to'liq ta'mirlandi va zamonaviy apparaturalar bilan ta'minlandi. Respublikamizda birinchilar qatorida katarakta tashrixida fakoemulsifikatsiya texnikasi yo'lga qo'yildi. Ko'z tubi o'zgarishlarini erta aniqlashda Fundus kamerasidan foydalanish, ko'z kasalliklarini davolashda ozonoterapiya metodlarini yo'lga qo'yilishi shular jumlasidandir.

2017-yil sentabr oyidan shifoxona bosh vrachi lavozimida Ahrorov Abdullo Abdusamatovich faoliyat yuritib kelmoqda.

2013-yil noyabr oyidan boshlab kafedra mudiri etib t.f.n. O.M.Sabirov tayinlandi. Hozir kafedrada t.f.d. professor I.T.To‘xtaboev, katta o‘qituvchi T.J.Usmonova, assistentlar D.X.Xoshimova, D.M.Qaxarova faoliyat ko‘rsatmoqda.

2018-yil yanvar oyidan kafedra mudiri etib t.f.d. I. T. To‘xtaboyev tayinlandi.

Yildan yilga kafedra moddiy-texnik bazasi boyib bormoqda. Ko‘z olmasida bajariladigan tashrixlarni kursantlarga yaqindan ko‘rsatish va o‘rgatish maqsadida videoikkilik, kompyuterdan keng foydalanilmoqda, kafedra xodimlari tomonidan ko‘plab o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar chop etilmoqda. Kafedrada ingliz tili burchagi va videokutubxona, masofaviy ta‘limga oid dasturlar yo‘lga qo‘yilgan.

Kafedra o‘z faoliyati davomida 145 ta o‘quv uslubiy qo‘llanma, 100 dan ortiq ratsionalizatorlik takliflari, 55 ta fan yangiligini amaliyotga tatbiq etdi. 106 ta ilmiy maqola va tezislari chop etdilar. O‘quv jarayonini yaxshilash maqsadida 1000 dan ortiq test sinovlari tayyorladilar.

Kafedraning ilmiy yo‘nalishlari:

- 1. Farg‘ona vodiysida glaukoma epidemiologiyasi va rehabilitatsiyasi.**
- 2. O‘sib boruvchi miopiyaning tog‘li iqlim sharoitida rivojlanishi va tarqalishi.**
- 3. To‘r parda degeneratsiyasining iqlimga bog‘liq ravishda tarqalishi.**



Kafedra xodimlari bilan

Katta o‘qituvchi T. Usmonova.	tel: + 998 90 548 84 88
Assistent D. Xoshimova.	tel: + 998 90 254 60 02
Assistent D. Qaxarova	tel: + 998 90 623 76 26

Kafedra xodimlari 2000-yildan buyon Paxtaobod va Izboskan, Ulug‘nor hamda Bo‘z tumanlariga otaliq yordami ko‘rsatib kelmoqdalar.

Hozirgi paytda kafedra Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent vrachlar malakasini oshirish instituti, Toshkent pediatriya instituti, S.N. Fyodorov nomidagi mikroxirurgiya markazi, Sechenov nomidagi Rossiya mikroxirurgiya markazi, Gelmgols nomidagi ilmiy tekshirish instituti va Bishkek tibbiyot akademiyalari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan.